

PARALIMPIYA HARAKATINI YANADA RIVOJLANTIRISH – ISTIQBOLI

Sarbon universiteti
Sherzod Ochilovich Berdiyev, dosent
Сарбонский университет
Шерзод Очилович Бердиев, доцент
Sherzod Ochilovich Berdiev
Academic degree: Docent
Sarbonne University

Annotatsiya: Ushbu maqolada Paralimpiya harakatining jamiyatdagi oʻrni, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishdagi ahamiyati hamda ushbu sohani rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sportchilar uchun yaratilgan sharoitlar va inkluziv sport muhitini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Paralimpiya, inkluzivlik, adaptiv sport, reabilitatsiya, motivatsiya, sport infratuzilmasi.

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ПАРАЛИМПИЙСКОГО ДВИЖЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются роль Параолимпийского движения в обществе, его значение в социальной реабилитации лиц с ограниченными возможностями, а также перспективные направления развития данной сферы. Также освещены вопросы создания условий для спортсменов и формирования инклюзивной спортивной среды.

Ключевые слова: Параолимпийские игры, инклюзия, адаптивный спорт, реабилитация, мотивация, спортивная инфраструктура.

Prospects for the Further Development of the Paralympic Movement

Abstract. The article presents a comparative analysis of the psychophysical state of young tennis players with cerebral palsy (CP) and healthy tennis players. The study is based on the analysis of anthropometric indicators and psychophysical characteristics of these groups of athletes. The paper examines adaptation to training and competitive activities, as well as differences in the level of physical, tactical, and theoretical preparedness. The results make it possible to identify factors influencing the effectiveness of sports performance in young tennis players with disabilities.

Keywords: adaptation, competitions, effectiveness, indicators, tactical training, theoretical training, comparative analysis.

Kirish. Keyingi yillarda Oʻzbekistonda va butun dunyoda paralimpiya harakatiga, imkoniyati cheklangan sportchilarni qoʻllab-quvvatlashga boʻlgan

e'tibor tubdan o'zgardi. Bu shunchaki sport musobaqalari emas, balki jamiyatning ijtimoiy tenglik va inson qadriga bo'lgan munosabati ramziga aylandi. Paralimpiya harakati nafaqat yuqori natijalar sporti, balki inson irodasi va teng imkoniyatlar ramzidir. Bugungi kunda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvida sport eng samarali vositalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston misolida so'nggi yillarda Paralimpiya o'yinlarida qo'lga kiritilayotgan natijalar ushbu sohani ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishni taqozo etmoqda.

1948 yil Germaniyalik shifokor Lyudvig Gutman Bakingemshir grafligiga qarashli Stok-Mandevil shahrida umurtqasi shikastlangan nogironlar uchun ham jismoniy ham ijtimoiy rehabilitatsiya sifatida sport musobaqalarini tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Aynan shu yili Buyuk Britaniyada o'tkazilgan Olimpiada o'yinlaridan so'ng Lyudvig Gutman boshchiligida Stok-Mandevil o'yinlariga asos solinadi. Dastlabki musobaqada atiga 16 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar ishtirok etadi. Ezgulik yo'lidagi bu tashabbus oradan o'n ikki yil o'tib, xalqaro sport forumiga aylantiriladi. Ya'ni, 1960 yili Rimda 1 yozgi Paralimpiya o'yinlariga asos solinadi. Musobaqalarda 23 davlatdan 400 nafar sportchilar yengil atletika, suzish, qilichbozlik, basketbol, kamondan otish, stol tennisi kabi sport turlari bo'yicha g'oliblik uchun bahs yuritishgan. Oradan to'rt yil o'tib, II Paralimpiya o'yinlariga Tokio shahri mezbonlik qiladi. Mazkur musobaqalarda 22 davlatdan kelgan 390 nafar paralimpiyachilar sportning 11 turi bo'yicha g'oliblik uchun bahs olib bordi.

1963 yil ko'zi ojizlar, amputantlar va umurtqa pog'onasi shikastlangan shaxslar uchun xalqaro sport musobaqalarini o'tkazishni ta'minlash maqsadida Xalqaro nogironlar sporti tashkiloti (XNST) tashkil qilindi. 1989 yilga kelib, qishki va yozgi Paralimpiya o'yinlarini o'tkazadigan Xalqaro tashkilot – Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi (XPQ) tashkil topdi. Hozirgi kunga kelib, 162 ta davlat Milliy Paralimpiya Qo'mitalari va 4 ta maxsus nogironlar sporti federatsiyasi Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasiga a'zo. 2006 yil O'zbekiston Nogironlar sport

assosiatsiyasi ham Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasiga a‘zo bo‘ldi va dunyo miqyosida tan olindi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sport bilan professional yoki havaskor darajada shug‘ullanish uchun keng yo‘llar ochilgan. Shu nuqtaiy nazardan hukumat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 18-maydagi “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5114-sonli, 2022 yil 30-dekabrda “Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 731-sonli va 2025 yil 11-dekabrda “Paralimpiya sport turlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-373-sonli qarorlarini keltirishimiz mumkin.

Yurtimizda Prezidentimiz rahnamoligida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari va jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarimizni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning ta‘lim olishi, sport bilan shug‘ullanishi, kasb sirlarini puxta egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda paralimpiya harakatini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sportchilarimizning xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etishini ta‘minlash maqsadida zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

O‘zbekistonda Milliy Paralimpiya assosiatsiyasi 2007 yil 27 fevralda tashkil topgan bo‘lib, shu bugunga kelib assosiatsiya Markaziy Osiyoda eng faol Paralimpiya tashkilotiga aylandi. Osiyo Paralimpiya qo‘mitasining 2010 yil Guanchjouda bo‘lib o‘tgan Bosh assambleyasida mamlakatimiz paralimpiya uyushmasi Markaziy Osiyodagi eng faol va rivojlangan uyushma, deb topilgani har bir yurtdoshimiz qalbiga faxr va iftixor tuyg‘ularini jo etadi.

Parij shahri mezbonligida o‘tgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari ham tarix sahifalaridan joy oldi. Osiyo davlatlari orasida uchinchi, MDH mamlakatlari orasida ikkinchi, Islom davlatlari orasida esa birinchi o‘rinni egalladik.

2024-yil 28-avgustdan 8-sentabrga qadar Parij shahri mezbonligida o‘tgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari ham tarix sahifalaridan joy oldi.

To'rt yillikning eng nufuzli musobaqasida dunyoning 182 davlatidan jami 4400 nafar matonatli atletlar 549 ta medallar jamlanmasi uchun bahs olib borishdi. Ular orasida O'zbekiston paralimpiya terma jamoasi ham munosib tarzda ishtirok etib, tarixiy natijaga erishdi.

O'zbekiston terma jamoasi 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza, jami 26 ta medal bilan Parij-2024 Paralimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi.

Davlatimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan e'tibor, yaratib berilayotgan shart-sharoitlarga javoban, o'zbek paralimpiya sportchilari oldindagi nufuzli musobaqalarda yanada yuqori natijalarni qayd etib, Vatanimiz nomini xalqaro arenalarda munosib himoya qilishlariga ishonamiz.

Xulosa. Paralimpiyachilarimizning har bir muvaffaqiyati mamlakatimiz bayrog'ini yuksaltirish bilan birga, xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning inklyuziv jamiyat qurish borasidagi qat'iy siyosatini namoyon etmoqda. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, zamonaviy sport majmualarining qurilishi va moddiy rag'batlantirish tizimi paralimpiyachilarni jamiyatning to'laqonli va faol a'zolariga aylantirdi. Endilikda paralimpiya sporti havaskorlik darajasidan professional industrial bosqichga ko'tarildi. Maxsus metodikalar, ilmiy yondashuv va hududiy seleksiya ishlari O'zbekistonni jahon paralimpiya xaritasida yetakchi davlatlardan biriga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021 yil 18-maydagi "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5114-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil 30-dekabrda "Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 731-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025 yil 11-dekabrdagi “Paralimpiya sport turlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-373-son qarori.